KIRISH

Pilla yetishtirish va ipakni qayta ishlashni o'z ichiga oluvchi sanoat tarmog'i dunyoning 60 dan ortiq mamlakatlarida mavjud bo'lib, yuqori bandlik salohiyatiga ega hamda daromadli tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ipak tolasi va undan olinadigan mahsulotlar o'zining nafisligi, nozikligi va ekologik tozaligi tufayli bozorda talabi yuqori bo'lgan mahsulotlar sirasiga kiradi. Sanoat usulida qayta ishlangan ipak tolalari to'qimachilik sanoati, tibbiyot va informatika kabi murakkab sohalarda keng qo'llaniladi. Shu sababli ipakka bo'lgan talab bozorda doimo yuqori bo'lishiga qaramay, ushbu talabni to'liq qondirish imkoniyatlari ishlab chiqarish hajmi yoki iqtisodiy raqobatbardoshlik darajasiga bog'liq holda turli to'siqlar bilan cheklanmoqda. Jumladan, ipak tolasi o'rnini bosuvchi sintetik tolalarning arzon narxlarida ishlab chiqarilishi hamda paxtaga o'xshash arzon tabiiy tolalarning mavjudligi bu fikrni isbotlaydi.

Ipakchilik sohasi O'zbekistonda uzoq tarixiy bosqichlardan o'tgan va aholi tomonidan avloddan-avlodga o'tib kelayotgan an'anaviy faoliyat turi hisoblanadi. O'zbekiston jahonda yetakchi ipak yetishtiruvchi mamlakatlar qatoriga kiradi. Tarmoqning asosiy xususiyatlaridan biri – uzoq yillik tarixga ega ekanligi, shuningdek, "Atlas" brendining xalqaro miqyosda tan olingani hamda kiyim-kechak sanoatida "prêt-à-porter" brendlari safida turishidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasida pillachilik tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan huquqiy hujjatlar va davlat siyosati tahlili ushbu sohaning izchil va kompleks rivojlanayotganligini ko'rsatadi. Mazkur sohani yuksaltirishga qaratilgan asosiy normativ-huquqiy asoslar jumlasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, shuningdek, sohaga oid alohida normativ hujjatlar kiradi.

Xususan, 2018-yil 4-dekabrda PQ-4017-sonli Prezident qarori¹ pillachilik tarmog'ida innovatsion yondashuvlarni joriy etish, pillakorlarni rag'batlantirish va xalqaro forumlar tashkil qilish bo'yicha asosiy huquqiy poydevor bo'ldi. Ushbu hujjatda ipak qurti parvarishi uchun zamonaviy, energiya tejamkor qurtxonalar qurilishi, rejadan ortiq pilla yetkazganlar uchun stimuly berish tizimi belgilangan.

2019-yil 31-iyuldagi PQ-4411-sonli qaror² orqali esa pillachilik klasterlarini tashkil qilish, chuqur qayta ishlashni rag'batlantirish, naslli urug'chilik bazasini rivojlantirish, tut daraxtlarini muhofaza qilish va jarimalarni maqsadli yo'naltirish bo'yicha muhim chora-tadbirlar belgilandi. Qarorning 2- va 9-bandlari orqali hududiy rivojlanish uchun imtiyozlar asosida sarmoya jalb qilish mexanizmlari kuchaytirildi.

2020-yil 17-yanvardagi PQ-4567-sonli qaror³ orqali tutzorlar uchun yangi yer maydonlari ajratilishi va foydalanilmayotgan yerlar rekonstruksiya qilinishi belgilandi. Qaror ilovalarida hududlar kesimida tutzorlar barpo etish, ixota tutzorlarini shakllantirish, meliorativ ob'ektlar atrofida eroziyaga qarshi tadbirlar belgilab berilgan. Bu esa pillachilikni ekologik barqaror asosda rivojlantirish imkonini yaratdi.

"O'zbekipaksanoat" uyushmasi tomonidan 2019–2025-yillar davomida ishlab chiqilgan strategik prognozlar asosida xom, yarim tayyor va tayyor ipak mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5,7 baravarga, kalavalangan ipak ip ishlab chiqarish 8,4 baravarga, tayyor ipakli mahsulot esa 207 baravarga oshirilishi rejalashtirilgan (O'zbekipaksanoat, 2023).

Ilmiy adabiyotlarda ham pillachilikda klaster tizimining joriy etilishi, ozuqa bazasini kengaytirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va kasanachilikni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy afzalliklari ko'plab mualliflar tomonidan ta'kidlangan (Karimov A., 2021; Yunusova M., 2022). Jumladan, O'zbekiston qishloq joylarida bandlikni oshirish va eksport salohiyatini kuchaytirishda pillachilik tarmog'i muhim o'rin tutishi ko'rsatib o'tilgan.

Bundan tashqari, xalqaro tajriba (Xitoy, Hindiston va Eron kabi davlatlar) tahlili ham shuni ko'rsatadiki, pillachilikning muvaffaqiyatli rivoji uchun davlat tomonidan soliq imtiyozlari, subsidiyalar va ko'p yillik huquqiy barqarorlik muhim omil bo'ladi. O'zbekistonda bu boradagi normativ asoslar boshqa davlatlar bilan raqobatlasha oladigan darajada takomillashib bormoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda hududlarda pillachilik sohasini rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari, statistik ma'lumotlar va amaliy faoliyat natijalari tahlil qilindi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – pillachilik

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.11.2018 yildagi PQ-4017-son <https://lex.uz/docs/-4060213>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 31.07.2019 yildagi PQ-4411-son <https://lex.uz/docs/-4456800>

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 17.01.2020 yildagi PQ-4567-son <https://www.lex.uz/ru/docs/-4704432>



tarmog'ining huquqiy asoslari va ularning hududiy rivojlanishdagi o'rni, amaliy samaradorligini aniqlash hamda mavjud imkoniyatlarni baholashdan iborat bo'ldi. Tadqiqot uslubi sifatida huquqiy hujjatlar tahlili, solishtirma tahlil, hududiy taqqoslash, tahliliy statistik yondashuv va ekspert intervyulari kabi usullar qo'llanildi. Xususan, Prezident qarorlari, farmonlar, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida sohadagi tartibga solish mexanizmlari chuqur o'rganildi. 2017–2024-yillar oralig'ida pillachilikning iqtisodiy natijalari (pilla hosili, eksport hajmi, bandlik darajasi, mahsulot hajmi) yillik kesimda tahlil qilinib, o'sish dinamikasi aniqlashtirildi. Turli viloyatlar kesimida tutzorlar ajratilishi, ipak qurti boqish miqdori, ishlab chiqarish loyihalari va klasterlar soni o'rtasidagi farqlar hamda ularning asosiy omillari aniqlanib, izohlandi. Davlat statistika qo'mitasi, "O'zbekipaksanoat" uyushmasi va Investitsiyalar agentligi tomonidan e'lon qilingan ochiq ma'lumotlar asosida tarmoq ko'rsatkichlari strukturalashgan holda tahlil qilindi. Shuningdek, mavjud bo'lsa, pillachilik korxonalari, kasanachilik birlashmalari va mahalliy hokimiyat vakillari bilan o'tkazilgan suhbatlar asosida amaliyotdagi muammolar va imkoniyatlar baholandi. Tadqiqot doirasida deskriptiv (tasviriy) va diagnostik yondashuvlar orqali sohada mavjud huquqiy imtiyozlar samaradorligi, mavjud resurslar, ilgari surilgan tashabbuslarning ijrosi va natijalari ilmiy asosda yoritildi. Shuningdek, xalqaro tajriba tahlili orqali O'zbekiston sharoitiga mos takliflar ishlab chiqishga harakat qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonning mavjud iqlim sharoitlari tut daraxtidan yiliga ikki marta hosil olish imkonini beradi. Shunga ko'ra, 2017-yilda 1–2 mavsumda yetishtirilgan pilla xom ashyosi 12,4 ming tonnani tashkil etgan bo'lsa, 2022-yil yakunlariga kelib bu ko'rsatkich 24,2 ming tonnaga yetgan, ya'ni deyarli ikki barobar oshgan. Dala va yo'l chetlarida mavjud yakka qator tut ko'chatlari soni ham yildan yilga ortib bormoqda. 2017-yilda ularning soni 45,5 mln. dona bo'lgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 217,4 mln. donadan oshgani kuzatilgan. Bu, ayniqsa, "Yashil makon" umummilliy dasturi doirasida tut ko'chatlarini ekishga berilgan e'tibor natijasidir. Har yili tutzor maydonlarining kengayib borishi ipakchilik sohasi uchun ozuqa bazasining mustahkamlanishiga olib kelmoqda. Bu holat ma'lum bir hududdagi tutdan olinadigan ozuqa miqdorining ortishiga hamda hosildorlikning oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. 2017-yilda O'zbekistonda jami 12 480,3 tonna pilla xom ashyosi tayyorlangan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 24 230,9 tonnani tashkil etgan. Pilla xom ashyosi hajmining ortishi ipak tolasi ishlab chiqarish hajmiga bevosita ta'sir ko'rsatib, mamlakatning jahon ipak bozoridagi mavqeini mustahkamlamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-martdagi PQ–2856-sonli "O'zbekipaksanoat" uyushmasini tashkil etish to'g'risidagi qarori⁴ sohaga oid ilk huquqiy hujjat hisoblanadi. Ushbu qarorga muvofiq, "O'zbekipaksanoat" uyushmasi tashkil etilib, viloyatlardagi "Pilla" hududiy birlashmalari asosida "Agropilla" mas'uliyati cheklangan jamiyatlari tashkil etilishi belgilangan. Rekreatsiya hududlarida tut yetishtirish yo'lga qo'yilgach, shahar sharoitida ham ipak qurti urug'ini tayyorlab, sotadigan MChJlar tashkil etilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 616-sonli qarori bilan "2017–2021-yillarda Pillachilik dasturi" tasdiqlangan. Ushbu dastur asosida pillachilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish, "O'zbekipaksanoat" uyushmasi tarkibidagi korxonalarni modernizatsiya qilish, yangi investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash, ayniqsa, ozuqa bazasini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilgan. Kompleks rivojlantirish deganda ipak qurti urug'chiligi, ozuqa yetishtirish va tut-pilla xom ashyosini qayta ishlash kabi bosqichlar tushuniladi.

"O'zbekipaksanoat" uyushmasi O'zbekistonda ipakchilik sohasini muvofiqlashtiruvchi asosiy tashkilot hisoblanadi. Ushbu uyushmaga a'zo korxonalar tomonidan 2022-yil davomida jami 2 014,9 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, bu ko'rsatkich mamlakatdagi umumiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 0,4 foizini, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining esa 3,2 foizini tashkil etgan. Xususan, 2022-yil yakuni holatiga ko'ra, mamlakat bo'yicha ipakchilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari quyidagicha bo'lgan: 521,6 ming tonna xom ipak tolasi, 286,9 ming tonna ipak momig'i, 617,1 ming pogonometr ipak mato, 246,8 ming tonna ipak kalava, 338,9 ming tonna tayyor ipakli mahsulotlar hamda 3,5 dona ipak gilamlar ishlab chiqarilgan. Ushbu raqamlar ipakchilik sohasining milliy iqtisodiyotdagi ulushi va uni yanada rivojlantirish zaruriyatini ochiq ko'rsatadi. (1-jadval)

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 29.03.2017 yildagi PQ-2856-son <https://lex.uz/docs/-3149416>



1-jadval. Respublika ipakchilik tarmog'ida mahsulot ishlab chiqarish dinamikasi

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2022-yilda 2015-yilga nisbatan o'sishi %
Mahsulot ishlab chiqarish	mlrd. so'm	130,5	274,3	588,0	849,6	1 140,5	2 014,9	2266,5
O'sish sur'ati	%	131,6	210,2	214,4	144,5	134,2	176,7	181,2
Mahsulot turlari:								
Ipak tolasi	tonna	526,3	785,0	1000,0	1200,0	1570,0	2500,0	401,5
Ipak momig'i	tonna	455,5	511,3	700,0	800,0	1100,0	1200,0	1558,4
Ipakli matolar	ming PGM	811,0	870,0	2150,0	2557,0	3651,4	12341,8	3022,7
Ipakli gilamlar	dona	25,0	60,0	90,0	250,0	393,0	885,0	17700
Ipak chiqindilari	tonna	90,0	180,0	700,0	800,0	1000,0	1100,0	2200
Tayyor ipakli mahsulot	ming dona	650,0	800,0	1100,0	1200,0	1400,0	1694,6	338,9
Ipak kalava	tonna	-	-	400,0	700,0	900,0	1 100,0	-
Ipak qurti urug'i	kuti	81690,0	81833,0	157866,0	185930,0	240000,0	320000,0	3200
Tut ko'chati	mln. dona	2,9	32,9	63,1	82,1	120,4	123,0	24,6
Ipak tolasi	mlrd. so'm	45,7	96,0	270	348	455,3	521,6	1676,4
Ipak momig'i	mlrd. so'm	39,2	82,3	140	182,2	239,1	286,9	1075,7
Ipakli matolar	mlrd. so'm	36,5	76,8	107,5	230,1	328,6	617,1	2479,1
Ipakli gilamlar	mlrd. so'm	9,1	19,2	0,5	1,3	2,0	3,5	56,2
Ipak chiqindilari	mlrd. so'm	13,5	27	70	88	115,5	132,0	1760
tayyor ipakli mahsulot	mlrd. so'm	97,5	120	165	180	280	338,9	847,3
Ipak kalava	mlrd. so'm	-	-	130	150	200	246,8	-
Ipak qurti urug'i	mln. so'm	3430,98	6382,97	16733,80	19708,6	25440,0	40320,0	4032
Tut ko'chati	mln. so'm	2,03	23,05	50,48	82,09	144,46	184,49	36897,3

O'zbekistonda ipak va ipakchilik mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha eng yetakchi hudud Samarqand viloyati hisoblanadi. Jami ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 13,1 foizi ushbu viloyat hissasiga to'g'ri keladi. Keyingi o'rinlarda Andijon viloyati (12,6 foiz) va Buxoro viloyati (10,3 foiz) joylashgan. 2022-yilda respublika bo'yicha 2 trillion so'mdan ortiq ipakchilik mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2023-yilda ushbu ko'rsatkich qariyb 3 trillion so'mga yetkazilishi kutilmoqda.



Pillachilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish, xususan, uning ozuqa bazasini jadal rivojlantirish, ipak qurti parvarishini takomillashtirish, pilla, xom ipak, ipak kalava ishlab chiqarish va ularni chuqur qayta ishlashning samarali usullarini joriy etish, ipakdan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, eksport salohiyatini yuksaltirish hamda qishloq joylarda aholi bandligi va daromadlarini oshirishni ta'minlovchi yagona tashkiliy-texnologik tizimni shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-martdagi PQ-2856-sonli qarori⁵ bilan "O'zbekipaksanoat" uyushmasi tashkil etilgan. Mazkur uyushma tashkil etilgach, 2017–2022-yillar davomida pillachilik sohasida bir qator islohotlar amalga oshirildi va ushbu islohotlarni huquqiy jihatdan mustahkamlovchi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi, jumladan:

2018-yil 12-yanvar – Prezident qarori PQ-3472-son⁶: "Respublikada ipakchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". Qarorda zamonaviy texnologiyalarni olib kirish, ipakchilik tarmog'i uchun malakali kadrlar tayyorlash, oliy ta'lim muassasalarida sirtqi bo'limlar tashkil etish va yangi tutzorlar barpo etish belgilangan.

2018-yil 20-mart – Prezident qarori PQ-3616-son⁷: "Pillachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". Qaror doirasida "O'zbekipaksanoat" uyushmasi muassisligida ipakchilik ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etilishi belgilangan bo'lib, institut faoliyati pillachilikda ilmiy izlanishlar olib borish, seleksiya yutuqlarini sinovdan o'tkazish, tut duragaylarini iqlim sharoitiga mos ravishda yetishtirishga yo'naltirilgan.

2018-yil 24-avgust – Prezident qarori PQ-3910-son⁸: "Pillachilik tarmog'idagi mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida". Qarorda tomorqa yer egalari ishtirokida tut ko'chatlarini ekish, pilla yetishtirish, uni qayta ishlash orqali eksport hajmini oshirish nazarda tutilgan. Mazkur tashabbuslar orqali xususiy kichik biznesni kengaytirish, ko'p qavatli uylarda yashovchi aholiga o'z uylari atrofida tut ko'chatlarini ekish, ularning bargidan foydalangan holda pilla yetishtirish imkoniyatlari yaratiladi.

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, rekreatsiya hududlaridagi shartli "tomorqa"lar nafaqat daromad manbai, balki sanoatni xom ashyo bilan ta'minlovchi, aholining bandligini oshiruvchi va biznes faollikka turtki beruvchi muhim omildir.

2018-yil 4-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pillachilik tarmog'ini jadal rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4017-sonli qarori⁹ sohaga yangicha yondashuvning huquqiy asosiga aylandi. Mazkur qarorda uch muhim ustuvor yo'nalish belgilandi: birinchidan, ipak qurti parvarishlanadigan qurtxonalarni innovatsion tarzda – ko'p qavatli, so'kichakli, yoritiladigan, isitiladigan, shamollatiladigan va sovutiladigan shaklda barpo qilish va ularni tut qatorlariga yaqin joylarda joylashtirish; ikkinchidan, rejadan ortiqcha pilla yetkazib bergan pillakorlarni moddiy rag'batlantirish; uchinchidan, mamlakat miqyosida xalqaro ipakchilik forumlarini tashkil etish orqali sohani ommalashtirish. Ushbu qaror loyhasini ishlab chiqqan, ko'rib chiqqan va davlat rahbariga taqdim qilgan mas'ul shaxslar tomonidan "reja" atamasidan foydalanilgan bo'lsa-da, bozor iqtisodiyoti sharoitida ushbu terminlar o'rniga "kelishuv", "shartnoma" kabi atamalarining qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir. Garchi qonunchilik hujjatlari, Prezident qaror va farmonlari tadbirkorlik subyektlari faoliyatini keng qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lsa-da, ijro tizimida hanuz eskicha yondashuv, jumladan, "reja", "xarid narxi" kabi iboralar qo'llanishda davom etmoqda.

Pillachilik sohasida ko'p yillik ilmiy izlanishlar olib borgan mutaxassislar fikriga ko'ra, 1 kilogramm hom pilla yetishtirish uchun o'rtacha 26,66 kishi-soat mehnat sarflanadi. Ushbu hom pilla (umuman olganda, 35–45 foiz) ipakka aylantirilishida esa qo'shimcha ravishda 6,67 kishi-soat inson mehnati talab etiladi. Amaldagi eng kam oylik ish haqi miqdori 920 000 so'm deb hisoblanganda, bir kishi-soat mehnat xarajati 203,2 soatga (25,4 kun × 8 soat) taqsimlangan holda 4 527,5 so'mni tashkil qiladi. Natijada, 1 kg hom pillani yetishtirish uchun sarflanadigan mehnat xarajati eng kamida 120 703,1 so'mni tashkil etadi. Agar bunga isitish, sovutish, yoritish, ipak qurti urug'ligiga sarflanadigan resurslar va boshqa umumxo'jalik xarajatlarning bir kilogrammga to'g'ri keladigan ulushi qo'shilsa, 1 kg hom pillaning minimal shartnoma bahosi 160–180 ming so'm atrofida bo'lishi lozim.

Mazkur biznes zanjirida hom pillani 160–180 ming so'm oraliqida kelishuv asosida sotib olgan qayta ishlovchi tashkilot zararga uchramaydi, balki barcha majburiy to'lov va soliqlardan keyin ham barqaror foyda ko'rishi mumkin. Ushbu holatni quyidagi iqtisodiy hisob-kitoblar orqali izohlash mumkin: ipak gilam to'qish uchun o'rtacha 10 kg toza, quritilgan ipak talab etiladi. Bu miqdor ipakka aylantirilish uchun 30 kg hom pillani talab etadi. Shunday qilib, 30 kg hom pilla 180 000 so'mdan sotib olinsa, jami xarajat 5 400 000 so'mni tashkil etadi. Bir dona gilamni bitta kasanachilik bilan shug'ullanuvchi ayol 8–12 oy davomida to'qiydi. Ushbu ish uchun unga har oy 3 million so'm, yiliga esa 36 million so'm haq to'lanadi. Bu summaga elektr energiyasi, xonadon

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 29.03.2017 yildagi PQ-2856-son <https://lex.uz/docs/-3149416>

6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 12.01.2018 yildagi PQ-3472-son <https://lex.uz/ru/docs/-3501061>

7 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 20.03.2018 yildagi PQ-3616-son <https://lex.uz/uz/docs/-4884803>

8 O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 24.08.2018 yildagi 24-son <https://lex.uz/ru/docs/-3895986>

9 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.11.2018 yildagi PQ-4017-son <https://lex.uz/docs/-4060213>



ijarasi va boshqa turdagi xizmat haqlari ham kiritilgan. Pillani ipakka aylantirish uchun esa $30 \text{ kg} \times 6,67 \text{ soat} \times 4 527,5 \text{ so'm} = 895 653 \text{ so'm}$ miqdorida mehnat xarajati talab etiladi. Qolaversa, amortizatsiya, boshqaruv, elektr ta'minoti kabi boshqa umumiy xarajatlar taxminan 960 000 so'mni tashkil etadi. Natijada, jami ishlab chiqarish xarajatlari $5 400 000 \text{ (pilla)} + 36 000 000 \text{ (ish haqi)} + 960 000 \text{ (boshqa)} = 42 360 000 \text{ so'mga}$ teng bo'ladi.

Bozor sharoitida ipak gilamning narxi 8 000–10 000 AQSh dollari yoki o'rtacha 88 million so'mga baholanishi mumkin. Bu orqali $88 000 000 - 42 360 000 = 45 640 000 \text{ so'mlik}$ sof foyda olinadi. Rentabellik darajasi esa $(45 640 000 / 88 000 000) \times 100 \approx 51,9$ foizni tashkil etadi. Ish haqi tariqasida 36 million so'm olgan kasanachi ayol 2 million so'mga yaqin xarajatni chegirgach, qolgan 34 million so'm uchun 12 foiz stavkada daromad solig'i to'laydi: bu 4 080 000 so'mga teng. Qayta ishlovchi esa 45 640 000 so'm foydadan 15 foiz miqdorida foyda solig'i to'laydi, ya'ni 6 846 000 so'm. Umuman olganda, 30 kg hom pilladan davlat byudjeti daromadlariga 10 926 000 so'm ($4 080 000 + 6 846 000$) soliq tushadi. Bundan tashqari, ishlab chiqaruvchi subyekt 15 foiz qo'shilgan qiymat solig'ini ham to'laydi. Mahalliy byudjetga esa yer solig'i, mol-mulk solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'lovlar alohida tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 31-iyuldagi "Pillachilik tarmog'ida chuqur qayta ishlashni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4411-sonli qarori¹⁰ doirasida soha rivojiga doir beshta muhim masala o'z yechimini topgan. Birinchidan, pillachilik klasterlarini tashkil etish tizimi joriy etilgan. Ikkinchidan, pillani chuqur qayta ishlashga doir investitsiya loyihalari amalga oshirilishining huquqiy va iqtisodiy asoslari ishlab chiqilgan. Uchinchi masala sifatida lizing asosida qishloq xo'jaligi texnikasini xarid qilish bo'yicha mexanizmlar ishlab chiqilib, bu tizim amaliyotga tatbiq etilgan. To'rtinchidan, naslli ipak qurti urug'i yetishtiruvchi korxonalarni tashkil etish bo'yicha aniq mexanizmlar belgilangan. Beshinchidan, tut daraxtlarini noqonuniy kesganlarga nisbatan qo'llaniladigan jarimalarning 50 foizi tutchilikni rivojlantirishga yo'naltirilishi mumkinligi qonuniy jihatdan ruxsat etilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3472-sonli qarorining 10-band¹¹, PQ-4047-sonli qarorining 7-band¹² hamda PQ-4411-sonli qarorning¹³ 2- va 9-bandlarida belgilangan soliq va bojxona imtiyozlari amal qilish muddati yakunlangan bo'lib, ularni uzaytirish pilla xomashyosi yetishtiruvchi korxonalar tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiya va modernizatsiya tadbirlarining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. 2017–2022-yillar davomida ipakchilik korxonalari ushbu imtiyozlardan samarali foydalangan holda jami 93,1 milliard so'm mablag' iqtisod qilgan. Ushbu mablag'ning 33,1 milliard so'mi texnologik uskunalarni xaridiga, 32 milliard so'mi ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilishga, 10,7 milliard so'mi xodimlarni moddiy rag'batlantirishga va 17,3 milliard so'mi boshqa tadbirlarga maqsadli yo'naltirilgan.

Mazkur imtiyozlar natijasida tarmoqda sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan. Jumladan, 2022-yilga kelib, ipakchilik klasterlari soni 74 taga yetkazilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2017-yilga nisbatan 57 taga ko'paygan. Xususan, 11 ta ipak qurti urug'chiligi korxonasi va 22 ta tut ko'chatlari yetishtirishga ixtisoslashgan xo'jaliklar faoliyat yuritgan. Tutzorlar maydoni 11,3 ming gektarga yetib, 2017-yilga nisbatan 126 foizga o'sgan, yakka qator tut daraxtlari soni esa 105,7 million tupga yetib, 3,4 baravar ortgan. Mavsumiy pilla yetishtirish yo'lga qo'yilishi hisobiga 2022-yilda 26,7 ming tonna pilla xomashyosi yetishtirilgan bo'lib, bu 2017-yilga nisbatan 14,2 ming tonna yoki 2,1 baravarga ko'p demakdir.

Ipak mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2022-yilda 2 trillion so'mga yetkazilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2017-yildagi 130 milliard so'mlik ishlab chiqarishga nisbatan qariyb 15 baravarga oshgan. Eksport hajmi esa 95,7 million AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, bu 2017-yildagi ko'rsatkichdan 75,7 million dollarga yoki 4,8 baravarga ko'pdur. Sohada bandlik darajasi ham keskin o'sib, 2022-yil yakunida 1 million 153 ming nafar aholi ish bilan ta'minlangan bo'lib, bu 2017-yildagi 305 ming nafarlik ko'rsatkichga nisbatan 3,8 baravar ko'pdur.

Soliq imtiyozlarining uzaytirilishi orqali 2026-yilga kelib pilla yetishtirish hajmini 31,2 ming tonnaga, ipak mahsulotlari ishlab chiqarishni 5,3 trillion so'mga, eksport hajmini esa 191,8 million AQSh dollariga yetkazish prognoz qilingan. Aholining bandligi ko'rsatkichi esa 1 million 322,6 ming nafarga yetishi kutilmoqda. Ta'kidlash joizki, 2021-yilda 862 ming 500 nafar fuqaro sohada ish bilan ta'minlangan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 1 million 130 ming nafarni, 2023-yilda 1 million 175 ming nafarni, 2024-yilda 1 million 222 ming nafarni, 2025-yilda esa 1 million 271 ming nafarni tashkil etishi prognoz qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 31-iyuldagi PQ-4411-sonli qarorida¹³, 2019–2025-yillar davomida "O'zbekipaksanoat" uyushmasi tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan ipak mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha belgilangan prognoz parametrlari aniqlashtirilgan bo'lib, ular asosida tarmoqning barqaror va yuqori sur'atlarda rivojlanishi ta'minlanmoqda. (2-jadval)

10 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 31.07.2019 yildagi PQ-4411-son <https://lex.uz/docs/-4456800>

11 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 12.01.2018 yildagi PQ-3472-son <https://lex.uz/uz/docs/-3501061?ONDATE=30.12.2021>

12 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 31.07.2019 yildagi PQ-4411-son <https://lex.uz/uz/docs/-4456800?ONDATE=28.04.2022%2000>

13 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 31.07.2019 yildagi PQ-4411-son <https://lex.uz/uz/docs/-4456800>



2-jadval. 2019–2025-yillarda “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tarkibidagi korxonalar tomonidan ipak mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport qilish bo‘yicha prognoz parametrlari

Mahsulotlar nomi	Yillar								O'sish sur'ati %, (2018– 2025-yy.)
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025	
Xom, yarim tayyor va tayyor mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi, mln. doll. ekv.	172,5	193,4	292,0	372,6	441,4	601,0	776,9	977,9	5,7 baravar
Tirik pilla, ming tonna	18,0	19,25	24,75	27,5	28,05	28,6	29,5	30,0	1,7 baravar
Xom ipak, ming tonna	1,91	2,04	2,62	2,91	2,97	3,03	3,12	3,18	1,7 baravar
Ipak momig'i, tonna	511,3	679	873	970	989,4	1009,2	1039,5	1060,3	2,1 baravar
Kalavalangan ipak ip, tonna	261,3	359,3	770	998,2	1309	1631,9	1833,6	2182	8,4 baravar
Ipak mato, mln. p.m	2,9	4,0	8,6	11,2	14,4	18,0	20,2	24,0	8,2 baravar
Ipak gilamlari, dona	60	90	129	528	1254	1 568	1960	2450	40,8 baravar
Tayyor ipakli mahsulot, mln. dona	0,06	0,4	0,8	1,1	2,0	5, 5	6,9	12,6	207,6 baravar
Ipak mahsulotlarining eksport hajmi, mln. doll.	50,7	65,2	73,8	86,7	151,9	216,5	336,7	515,9	10,2 baravar

“O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tizimidagi korxonalar 2019-yildan boshlab ipak chiqindilarini qayta ishlash, 2022-yildan boshlab esa tayyor ipakli mahsulotlar ishlab chiqarish bosqichlarini o‘zlashtirgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-yanvarda qabul qilingan PQ-4567-sonli¹⁴ "Pillachilik tarmog'ida ipak qurti ozuqa bazasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori sohadaqi eng dolzarb masalalarning yechimiga bag'ishlangan.

Qarorning 1-ilovasida 2020-yilda yangi tutzorlar barpo etish uchun pillachilik tarmog'i tashkilotlariga o'rnatilgan tartibda, ko'p yillik ijara shartnomasi asosida ajratiladigan qishloq xo'jaligida foydalanilmayotgan (foydalanishdan chiqib ketgan) yer maydonlarining hududlar kesimidagi ro'yxati keltirilgan.

Ro'yxatga ko'ra:

T/r	Hududlar nomi	Yangi tutzorlar uchun ajratiladigan yer maydonlari (gektar) (2020 yil oxiriga)	2020 yilda rekonstruksiya qilinadigan yaroqsiz tutzorlar (gektar)
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	750	80,1
2.	Andijon viloyati	633	369,3
3.	Buxoro viloyati	1906	309,1
4.	Jizzax viloyati	900	574,1
5.	Qashqadaryo viloyati	1688	1525,5
6.	Navoiy viloyati	150	97
7.	Namangan viloyati	450	210,5
8.	Samarqand viloyati	1386	684,8
9.	Toshkent viloyati	1050	467,5
10.	Farg'ona viloyati	1790	735
11.	Surxondaryo viloyati	1875	233,8
12.	Sirdaryo viloyati	750	327,3
13.	Xorazm viloyati	1687	176,6
14.	Toshkent shahri	-	-
Respublika bo'yicha jami:		15015	5790,6



Qishloq xo'jaligida foydalanishdan chiqib ketgan yerlar jumlasiga ko'p qavatli uylar, yo'llar qirg'oqlari, zavod, fabrika, maktab, bog'cha, shifoxona, park, xiyobonlar, o'rmon tashkil etish uchun ajratilgan va boshqa yerlarni ham kiritish mumkin. Shu asosda rekreatsiya hududlarini ham tushunish lozim. Bular esa katta ichki imkoniyatlardir. Biroq hozirgacha mazkur imkoniyatlardan yetarli darajada foydalanilmayapti. Bu borada faqat Surxondaryo viloyatini istisno tariqasida ko'rsatish mumkin. Qolgan hududlarda esa, asosan import qilingan ko'chatlarni ekish, ularning yarmisini quritib qayta ekish va so'ng hisobot topshirish amaliyoti davom etmoqda.

PQ-4567-sonli Qarorning¹⁵ 2-ilovasida 2020–2024-yillarda respublika hududlarida meliorativ obyektlar atrofida va qishloq xo'jaligi yerlarida shamol va suv eroziyalaridan himoyalash uchun ixota tutzorlarini barpo etish prognoz parametrlari ko'rsatilgan. Ilovada keltirilishicha, 2020-yilda 2020 gektar yerda 3 700 ming tup tut ko'chatlari ekilishi belgilangan. 2021-yilda 2 500 gektarga 4 572 ming tup va 2024-yilda ham 2 500 gektar yerga 4 572 ming tup tut ekilishi rejalashtirilgan. Umuman olganda, 2020–2024-yillar davomida 12 020 gektar yer maydonlarini shamol va suv eroziyalaridan himoyalash uchun jami 21 988 ming tup tut daraxti ekilishi mo'ljallangan.

Prezident qarorining 3–4-ilovalariga muvofiq, 2020-yilda 381 826 quti ipak qurti boqilib, 21 000 tonna pilla yetishtirish, 2021-yilda 401 261 qutidan 22 470 tonna, 2025-yilda esa 500 081 quti ipak qurtidan 30 006 tonna pilla olish mo'ljallangan. Bu esa har bir qutidan o'rtacha 59 kg dan ortiq pilla yetishtirish imkonini bildiradi. Bu bir martalik boqishdan olinadigan pilla hajmi bo'lib, 10 ming tonnadan ortiq toza, quruq va standart ipakni anglatadi. Vaholanki, ipak qurtini ikki va hatto 3–7 marta takror boqish orqali nazariy jihatdan 200 ming tonnagacha pilla yoki 70 ming tonna ipak olish mumkin.

Bugungi kunda 1 kg standart ipak 50–70 AQSh dollariga teng. Agar 70 ming tonna ipakni faqat 50 dollardan hom-ashyo sifatida eksport qilish nazarda tutilsa, 3,5 milliard dollar miqdorida valyuta tushumi ta'minlanadi. Agar mazkur hom-ashyo chuqur qayta ishlansa, uning qiymati 10 baravarga oshadi. Natijada, hunarmandlar, sanoat korxonalari va ishlab chiqaruvchilar daromadli bandlik bilan ta'minlanadi. Shu bois, ushbu soha uchun strategik marrani 35 milliard dollarga qaratish lozim. Chunki boshqa mamlakatlarda pilla 8–10 marta yetishtirilib, hatto ortiqcha ipak ham eksport qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining:

2020-yil 26-iyundagi PQ-4759-son "Respublikada qo'lda to'qilgan gilamchilik sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori¹⁶;

2021-yil 8-iyuldagi PQ-5178-son "Respublikada mavjud yaylovlardan unumli foydalanish, ipak va junni qayta ishlashni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori¹⁷;

2023-yil 24-fevraldagi PQ-73-son "Ipakchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori¹⁸;

2023-yil 1-iyundagi PF-85-son "Pillachilik sohasida kasanachilikni qo'llab-quvvatlash hamda pilla yetishtirish uchun ozuqa bazasini yanada kengaytirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori¹⁹;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-martdagi 128-son "Pillachilik va tutchilik tashkilotlariga tutzorlarda suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini joriy qilish uchun sarflangan xarajatlarning bir qismini qoplab berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori²⁰;

2021-yil 24-dekabrda 773-son "Pilla yetishtiruvchi jismoniy shaxslarga ular tomonidan yetishtirilgan pilla (ho'l pilla) hosili uchun subsidiya ajratish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori²¹;

2023-yil 21-iyuldagi 305-son "Pillani qayta ishlash va ipak qurti urug'ini ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan pilla boquvchilarga yetkazib berilgan ipak qurti urug'i uchun subsidiya ajratish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori²² ipakchilik tarmog'ining jadal rivojlanishida muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Mazkur qarorlar asosida ipakchilik korxonalari qator soliq va moliyaviy imtiyozlar taqdim etilgan bo'lib, hozirda ayrim imtiyozlar amalda qo'llanilmoqda. Biroq 2023-yil 1-yanvardan boshlab ba'zi imtiyozlar muddati tugadi. Jumladan, PQ-2856-sonli qarorga ko'ra, ipak qurti urug'ini ishlab chiqarish, pillani yetishtirish, tayyorlash va qayta ishlash, tayyor ipak mahsulotlari hamda pillachilik tarmog'i uchun yordamchi materiallarni (sun'iy pilla o'rash dastalari) ishlab chiqarishdan olinadigan daromadlar aylanmadan olinadigan soliqdan ozod etilgan edi.

15 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 17.01.2020 yildagi PQ-4567-son <https://www.lex.uz/ru/docs/-4704432>

16 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.06.2020 yildagi PQ-4759-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-4873603?ONDATE=11.11.2023>

17 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, 08.07.2021 yildagi PQ-5178-son <https://lex.uz/ru/docs/-5499558>

18 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.02.2023 yildagi PQ-73-son <https://lex.uz/uz/docs/-6390423>

19 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.06.2023 yildagi PF-85-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-6479960>

20 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 10.03.2021 yildagi 128-son <https://www.lex.uz/docs/-5326094?ONDATE=06.08.2022%2000>

21 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 24.12.2021 yildagi 773-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-5792697?ONDATE=23.12.2022%2000>

22 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 21.07.2023 yildagi 305-son <https://lex.uz/ru/docs/-6540954>



Shuningdek, pilla yetishtiruvchi tashkilotlarning – pilla yetishtirish bilan shug'ullanuvchi kasanachilar va boshqa ishchi-pillakorlar mehnatiga haq to'lash uchun yo'naltirilgan mablag'lari bo'yicha ijtimoiy soliqdan ozod etilishi, bundan bo'shagan mablag'larning esa kasanachilar va pillakorlarni moddiy rag'batlantirishga yo'naltirilishi nazarda tutilgan edi. Uy sharoitida tirik pilla yetishtiruvchi (kasanachi) jismoniy shaxslar esa daromad solig'i to'lashdan ozod etilgan. Mazkur imtiyozlarning muddati 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra yakunlangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan ma'lumki, ishlab chiqarishning barcha bosqichlari uchun qiymat yaratish "O'zbekipaksanoat" uyushmasining ustuvor vazifasi hisoblanadi va bu borada so'nggi yillarda samarali ishlar amalga oshirilgan. 2017–2022-yillar davomida umumiy qiymati 478,6 million AQSh dollari bo'lgan 418 ta loyiha amalga oshirilgan bo'lib, ushbu loyihalar doirasida ishlab chiqarish quvvatlari qariyb 8,9 baravar oshgan. Amalga oshirilgan loyihalarning aksariyati ipak mahsulotlarini to'liq qayta ishlash asosida qo'shilgan qiymat yaratishni nazarda tutuvchi loyihalardir.

Tahlil qilinayotgan yillarda xorijiy investitsiya ishtirokida pillani qayta ishlash va ipakli mahsulotlar ishlab chiqarish yo'nalishida 440,4 million AQSh dollari miqdorida 382 ta loyiha amalga oshirilgan. Keyingi yillarda urug'chilik tizimini rivojlantirish va ipak qurti urug'i ishlab chiqarish bo'yicha ham innovatsion loyihalar amalga oshirilmoqda.

Oxirgi ikki yilda yangi loyihalarning amalga oshirilishi va sohada ilmiy-tadqiqot ishlarining rivojlantirilishi natijasida 10 ta ipak mato, ipak gilam va tayyor ipakli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi, 3 ta ipak va jun aralashmalaridan qo'lda gilam to'quvchi yirik korxona, shuningdek 1 ta ipak qurti g'umbagidan oqsil ishlab chiqaruvchi korxona ishga tushirildi. Ipak qurti g'umbagidan yog' ishlab chiqarish, uning asosida esa qimmatbaho dorivor va farmakologik vositalar, kosmetologiya yo'nalishidagi mahsulotlar, pilla sovuni, hamda tut bargidan choy ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Amalga oshirilgan loyihalar natijasida eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushi oshib borgan. 2017-yilda jami tolaning 56,0 foizi ichki korxonalarda qayta ishlash uchun yo'naltirilgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 85,8 foizga yetgan. Ipak momig'ining esa 2022-yilda qariyb 77,23 foizi ichki ishlab chiqarishga yo'naltirilgan.

Ozuqa bazasini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi "Pillachilik sohasida kasanachilikni qo'llab-quvvatlash hamda pilla yetishtirish uchun ozuqa bazasini yanada kengaytirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PF–85-sonli farmoniga asosan, hududlar kesimida 105 ming gektar lalmi va yaylov maydonlaridan tutzorlar uchun yer ajratilishi va qo'shimcha ravishda 105 ta ipakchilik klasterlari tashkil qilinishi, shuningdek pilla yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari faoliyati yo'lga qo'yilishi nazarda tutilgan.

Pilla xom ashyosining yetishtirilishi ortishi hisobiga "O'zbekipaksanoat" uyushmasi tarkibidagi korxonalar tomonidan mahsulot ishlab chiqarishni 1,7 baravardan (tirik pilla va xom ipak ishlab chiqarish) tortib, 207,6 baravargacha (tayyor ipakli mahsulot ishlab chiqarish) oshirish rejalashtirilgan.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmining ortishi hamda qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan sifatli ipakli mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilishi natijasida eksport hajmining ham ortishi kuzatilmoqda. 2022-yilda uyushma tizimidagi korxonalar tomonidan 96,2 million AQSh dollari qiymatidagi mahsulotlar eksport qilingan bo'lsa, 2030-yilga borib bu ko'rsatkich 257,7 million AQSh dollariga yetkazilishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-dekabrda PQ–4017-sonli qarori "Pillachilik tarmog'ini jadal rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". <https://lex.uz/docs/-4060213>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 31-iyulda PQ–4411-sonli qarori "Pillachilik tarmog'ida chuqur qayta ishlashni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". <https://lex.uz/docs/-4456800>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-yanvarda PQ–4567-sonli qarori "Pillachilik tarmog'ida ipak qurti ozuqa bazasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". <https://www.lex.uz/ru/docs/-4704432>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-iyulda PQ–4759-sonli qarori "Respublikada qo'lda to'qilgan gilamchilik sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". <https://www.lex.uz/uz/docs/4873603?ONDATE=11.11.2023>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyulda PQ–5178-sonli qarori "Ipak va junni qayta ishlashni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". <https://lex.uz/ru/docs/-5499558>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-fevralda PQ–73-sonli qarori "Ipakchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida". <https://lex.uz/uz/docs/-6390423>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyulda PF–85-sonli Farmoni "Pillachilik sohasida kasanachilikni qo'llab-quvvatlash hamda pilla yetishtirish uchun ozuqa bazasini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". <https://lex.uz/ru/docs/-6479960>
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-martda 128-sonli qarori "Tutzorlarda suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini joriy qilish uchun xarajatlarni qoplash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida". <https://lex.uz/docs/-5326094?ONDATE=04.08.2023%2001>



9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-dekabrda 773-sonli qarori "Pilla yetishtiruvchi jismoniy shaxslarga subsidiya ajratish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida". <https://www.lex.uz/uz/docs/-5792697?ONDATE=24.12.2021>
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-iyulda 305-sonli qarori "Ipak qurti urug'i uchun subsidiya ajratish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida". <https://www.lex.uz/uz/docs/-6540954>
11. Davlat statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari (www.stat.uz)
12. "O'zbekipaksanoat" uyushmasining yillik tahliliy axborotnomalari (2020–2024-yillar).
13. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma'lumotlari (www.invest.gov.uz)
14. Axmedov S. "Pillachilik tarmog'ining zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari". – Toshkent: Iqtisodiyot va ta'lim, 2022.
15. Usmonov B. "Ipakchilik sohasida hududiy siyosat va islohotlar". – Samarqand: Ilm nuri, 2023.
16. Rasulov A. "Qishloq xo'jaligi tarmoqlarining investitsion jozibadorligi". – Toshkent: Fan va taraqqiyot, 2021.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
